VIII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasi 3883,1 mln. AQSh dollarini va o‘zgarish sur’ati 119,6 %ni, jumladan 1458,6 mln. AQSh dollarini - eksport operatsiyalari yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,3 %ni, 2424,5 mln. AQSh dollarini - import operatsiyalari yoki o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 119,2 %ni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida MDH va boshqa davlatlar kesimida viloyatning tashqi savdo aylanmasi *(mln. AQSh dollari)*

	yanvar-sentyabr		*2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan % hisobida*
	2020- yil	*2021- yil*	
Tashqi savdo aylanmasi	**3 245,6**	**3 883,1**	**119,6**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	1 480,8	1 828,7	123,5
boshqa davlatlar	1 764,8	2 054,4	116,4
Eksport	**1 212,4**	**1 458,6**	**120,3**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	451,5	487,3	107,9
boshqa davlatlar	760,9	971,3	127,7
Import	**2 033,2**	**2 424,5**	**119,2**
shu jumladan:			
MDH davlatlari	1 029,3	1 341,4	130,3
boshqa davlatlar	1 003,9	1 083,1	107,9

Viloyat tashqi savdo aylanmasida
MDH va boshqa davlatlarning ulushi, *%da*

2020- yil yanvar-sentyabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	45,6	37,2	50,6
Boshqa davlatlar	54,4	62,8	49,4

2021- yil yanvar-sentyabr



	Savdo aylanmasi	Eksport	Import
MDH davlatlari	47,1	33,4	55,3
Boshqa davlatlar	52,9	66,6	44,7

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida
viloyat eksport-importi tarkibi

	Eksport va importning umumiy hajmidagi ulushi, % hisobida		*2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan % hisobida*
	2020- yil yanvar-sentyabr	*2021- yil yanvar-sentyabr*	
Eksport tarkibi	**100,0**	**100,0**	**120,3**
paxta tolasi	1,0	0,02	2,6
oziq-ovqat mahsulotlari	13,6	10,2	90,3
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	3,6	4,7	155,0
energiya manbalari va neft mahsulotlari	-	0,02	-
qora va rangli metallar	57,7	59,3	123,7
mashina va uskunalar	2,0	1,8	111,0
xizmatlar	0,6	0,5	91,3
boshqalar	21,5	23,5	131,7
Import tarkibi	**100,0**	**100,0**	**119,2**
oziq-ovqat mahsulotlari	15,8	16,8	126,7
kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar	8,7	9,9	135,1
energiya manbalari va neft mahsulotlari	3,6	2,9	94,7
qora va rangli metallar	13,8	9,6	82,9
mashina va uskunalar	36,5	30,0	98,1
xizmatlar	1,8	0,9	63,2
boshqalar	19,8	29,9	179,8

Eksport tarkibida tovarlar 99,5 % ulushiga ega bo‘lib, bular asosan qora va rangli metallar (59,3 %), boshqa turdagi tovarlar (23,5 %), oziq-ovqat mahsulotlari (10,2 %), paxta tolasi (0,02 %), kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar (4,7 %), mashina va uskunalar (1,8 %), shuningdek, xizmatlar (0,5 %) guruhlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi (*mln. AQSh dollari*)



Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (30,0%), qora va rangli metallar (9,6 %), oziq-ovqat mahsulotlari (16,8 %) hamda boshqa mahsulotlar (30,0 %) guruhlari hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tovar va xizmatlar importi tarkibi

(*mln. AQSh dollari*)



2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida katta ulushga ega bo‘lgan davlatlar bilan tovar aylanmasi

	Viloyat tovar aylanmasida ulushi, % hisobida	*2020- yil yanvar-sentyabrga nisbatan % hisobida*
Rossiya Federatsiyasi	21,5	112,3
Turkiya	20,1	193,7
Qozog‘iston	17,6	135,6
Xitoy	12,5	80,9
Braziliya	3,7	6,2 m.
Koreya Respublikasi	2,7	61,7
Belarus	2,3	3,0 m.
Ukraina	2,1	195,1
Germaniya	1,5	105,0
Tojikiston	1,4	86,6
Afg‘oniston	1,4	69,9
Qirg‘iz Respublikasi	1,2	86,6
Italiya	1,2	139,9
Niderlandiya	0,9	137,6
Litva	0,8	89,9
Irlandiya	0,8	139,8
Qatar	0,7	-
Singapur	0,6	188,6
Eron Islom Respublikasi	0,6	199,3
Ozarbayjon	0,5	100,1

Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Xitoy va Braziliya davlatlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 75,4 %ini tashkil qiladi. Rossiya, Turkiya, Qozog‘iston, Xitoy va Braziliya davlatlariga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga nazar tashlasak, asosan kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar, energiya manbalari va neft mahsulotlari hamda oziq-ovqat mahsulotlari guruhlaridan iborat ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

2021- yil yanvar-sentyabr oylarida MDH va boshqa xorij davlatlari bilan amalga oshirilgan tashqi savdo tarkibi %da

Eksport



Import



Viloyatda tashqi savdoni qo‘llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2021- yil yanvar-sentyabr oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 47,1 %ni tashkil etdi hamda tashqi savdo aylanmasi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 23,5 %ga oshdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 52,9 %ni tashkil qildi (2020- yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 54,4 %ga teng bo‘lgan).

Toshkent viloyatining kichik biznes korxonalarining tashqi savdo aylanmasi
(mln. AQSh dollari)



So‘nggi yillarda Hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilinishi, eksportni qo‘llab-quvvatlash, import o‘rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida viloyat tashqi savdo aylanmasida kichik biznes korxonalarining ulushi oshib bormoqda.

Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida jami 174,3 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 96,6 mln. AQSh dollariga eksport qilindi (o‘zgarish sur’ati – 80,5 %). Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida 113,1 ming tonnadan ko‘proq sabzavotlar 53,0 mln. AQSh dollariga yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan qiymatda - 9,9 %ga o‘sgan.

Shuningdek, 36,7 ming tonna meva va rezavorlar 28,6 mln. AQSh dollarga eksport qilingan bo‘lib, eksport hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 65,4 %ni tashkil etdi.

2021- yil yanvar-sentyabr,
mln. AQSh dollari

Meva va rezavorlar
36,7 ming tonna
28,6 mln. AQSh dollari

Uzumlar
14,1 ming tonna
10,0 mln. AQSh dollari

Eryong‘oqlar
2,4 ming tonna
2,8 mln. AQSh dollari

Sabzavotlar
113,1 ming tonna
53,0 mln. AQSh dollari

Shuni aytib o‘tish joizki, viloyatning eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o‘zlashtirish natijasida, meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, quritilgan sabzavot va mevalar eksport qilinmoqda. Jumladan, 2021- yilning yanvar-sentyabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 81,6 mln. AQSh dollariga teng bo‘lib, umumiy eksportdagi ulushi 5,6 %ni tashkil etdi.